

II . SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 36 661,2 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 106,2 %ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatiga to'g'ri kelib, jami ishlab chiqarish hajmining 92,7 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni qazish – 0,7 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,9 %ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 0,7 %ga o'sish kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)

2022- yil yanvar-dekabr

2023- yil yanvar-dekabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini tomonidan 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 245,3 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ni tashkil etdi. Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi – 2,4 martani tashkil qildi.


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33 990,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,7 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 137,8 mlrd. so‘mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4%), o‘rta-yuqori texnologiyali 5 859,2 mlrd. so‘mni, (16,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali 8 751,8 mlrd. so‘mni (23,9 %), va quyi texnologiyali 19 241,3 mlrd. so‘mni, (52,5 %) tashkil etdi.

2023-yil yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 177,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 %ni) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 124,8 %ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

(2023- yil yanvar-dekabr)

	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yilga nisbatan, %da</i>
Elektroenergiya - mln. kVt/s	396,3	393,7	100,7
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	1 553,0	1 250,7	124,2

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr holatiga nisbatan, % da</i>
Avtomobil benzini	ming tonna	318,2	124,9
Dizel yoqilg‘isi	ming tonna	438,6	133,2
Uzum vinosi	ming litr	775,5	131,3
Neft bitumi	ming tonna	59,3	159,8
Superfosfat	ming tonna P2O5	20,2	51,9
Paxta chigit	tonna	147 047,7	127,3
Shisha idishlar	ming dona	4 715,0	25,2
Gips	tonna	-	-

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 248,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ni) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun)


	mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan foizda
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	36 661,2	100,0
Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	245,3	0,7
<ul style="list-style-type: none"><i>ulardan:</i>		
Tog'–kon sanoatining boshqa turlari	245,3	0,7
Qayta ishlash sanoati	33 990,2	92,7
<ul style="list-style-type: none"><i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	5 120,4	14,0
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	12 602,6	34,4
yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	797,9	2,2
20,9	0,06	
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1 719,9	4,7
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5 102,7	13,9
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	50,1	0,1
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	4 360,3	11,9
metallurgiya sanoati	265,3	0,7
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1 138,4	3,1
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	87,8	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	373,0	1,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	271,3	0,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1 081,1	2,9
Boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish	278,2	0,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	317,3	0,9
Mebel ishlab chiqarish	382,2	1,0
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	20,8	0,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2 177,1	5,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	248,7	0,7

Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Buvayda tumani (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,7 %ga), Qo‘shtepa tumani (110,5 %ga), Uchko‘prik tumani (109,8 %ga) hamda Beshariq tumani (108,7 %ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi ta’minlandi.

Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, indeksining o‘sish sur’atlari

(2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi


	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi %da	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan %da
Viloyat jami:	36 661,2	100,0	106,2
Farg‘ona	10 296,3	28,1	100,7
Qo‘qon	6 193,3	16,9	106,0
Quvasoy	1 646,7	4,5	106,3
Marg‘ilon	1 682,7	4,6	106,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	868,4	2,4	105,1
Qo‘shtepa	2 437,6	6,6	110,5
Bag‘dod	1 057,9	2,9	103,3
Buvayda	985,6	2,7	110,7
Beshariq	1 079,2	2,9	108,7
Quva	723,4	2,0	102,6
Uchko‘prik	3 302,6	9,0	109,8
Rishton	485,4	1,3	105,8
So‘x	121,9	0,3	106,3
Toshloq	1 561,8	4,3	106,0
O‘zbekiston	1 106,3	3,0	106,4
Farg‘ona	1 192,4	3,3	106,1
Dang‘ara	1 114,5	3,0	107,4
Furqat	547,3	1,5	105,3
Yozyovon	258,0	0,7	106,8

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini tuman va shaharlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Farg‘ona shahrida 10 296,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 % ni, Qo‘qon shahrida 6 193,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 % ni, Quvasoy shahrida 1 646,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 % ni, Marg‘ilon shahrida 1 682,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 %ni, Oltiariq tumanida 868,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 % ni, Qo‘shtepa tumanida 2 437,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,5 % ni, Bag‘dod tumanida 1 057,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 % ni, Buvayda tumanida 985,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib,


2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,7 % ni, Beshariq tumanida 1 079,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 % ni, Quva tumanida 723,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 % ni, Uchko‘prik tumanida 3 302,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %ni, Rishton tumanida 485,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 % ni, So‘x tumanida 121,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %ni, Toshloq tumanida 1 561,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0%ni, O‘zbekiston tumanida 1 106,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %ni, Farg‘ona tumanida 1 192,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,1 %ni, Dang‘ara tumanida 1 114,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %ni, Furqat tumanida 547,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 %ni, Yozyovon tumanida 258,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,8 %ni, tashkil etdi.

Tuman (shahar)larning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi


ulushi, %da (2023- yil yanvar-dekabr)



Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 49,2 % ni tashkil etmoqda.




Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (2023- yil yanvar-dekabr oylari, foiz hisobida)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili Farg'ona shahrida (32 365,0 ming so'm), Qo'qon shahrida (20 214,0 ming so'm), Quvasoy shahrida (16 465,3 ming so'm), Uchko'prik tumani (13 823,8 ming so'm)da viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda (2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun)




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 803 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 960 tasi Qo'qon shahri, 889 tasi Farg'ona shahri, 730 tasi Marg'ilon shahri, 559 tasi Uchko'prik tumani, 455 tasi O'zbekiston tumani, 454 tasi Dang'ara tumani, 398 tasi Rishton tumani, 356 tasi Quva tumani, 353 tasi Toshloq tumani, 351 tasi Bag'dod tumani 346 tasi Buvayda tumani, 325 tasi Oltiariq tumani, 285 tasi Farg'ona tumani, 269 tasi Qo'shtepa tumani, 241 tasi Quvasoy shahri, 225 tasi Beshariq tumani, 210 tasi Yozyovon tumani, 199 tasi So'x tumani hamda 198 tasi Furqat tumanlariga to'g'ri keladi.


2024-yilning 1-yanvar holatiga viloyatda 1 711 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 248 tasi Farg'ona shahri, 159 tasi Marg'ilon shahri, 154 tasi Qo'qon shahri, 118 tasi Dang'ara tumani, 99 tasi Toshloq tumani, 87 tasi Buvayda tumani, 82 tasi O'zbekiston tumani, 81

tasi Uchko‘prik tumani, 81 tasi Rishton tumani, 77 tasi Qo‘shtepa tumani, 75 tasi Bag‘dod tumani, 69 tasi Quvasoy shahri, 67 tasi Furqat tumani, 64 tasi Quva tumani, 60 tasi So‘x tumani, 54 tasi Farg‘ona tumani, 52 tasi Oltiariq tumani, 49 tasi Besharig tumani, 35 tasi Yozyovon tumaniga to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yil boshidan yangi tashkil etilgan korxonalar (2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun, soni birlikda)



Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mulkchilik shakllari, foizda (2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 151 ta loyiha bo‘yicha 3 614,5 mld. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

(2023- yil yanvar-dekabr)

	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	162	151
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	120	133
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mldr. so‘m</i>	2 189,8	3 614,5
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulotlar hajmi, <i>mln. AQSH doll.</i>	49,0	35,7
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	717	1 458


Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 9 277,0 mld. so‘mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,0%ni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 25,3%ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr holatiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi


	mlrd. so‘m	Jami hajmga nisbatan foizda
Jami iste’mol tovarlari hajmi:	9 277,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	4 287,5	46,2
nooziq-ovqat tovarlari	4 989,5	53,8

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi



Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da

(yanvar-dekabr oylari uchun)



**Hududlar bo‘yicha 2023-yil yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’ati**

	Xalq iste’mol mollari <i>(mlrd. so‘m)</i>	Jamiga nisbatan ulushi %da	2022- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan %da
Viloyat jami:	9 277,0	100,0	102,0
Farg‘ona	1 185,6	12,8	102,5
Qo‘qon	1 455,9	15,7	102,1
Quvasoy	181,4	2,0	110,8
Marg‘ilon	834,1	9,0	104,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	247,4	2,7	106,4
Qo‘shtepa	313,9	3,4	114,8
Bag‘dod	689,7	7,4	110,6
Buvayda	224,0	2,4	116,0
Beshariq	142,8	1,5	113,6
Quva	353,3	3,8	110,4
Uchko‘prik	1 856,3	20,0	121,6
Rishton	178,0	1,9	115,0
So‘x	79,4	0,9	106,0
Toshloq	240,1	2,6	101,4
O‘zbekiston	160,4	1,7	104,1
Farg‘ona	185,4	2,0	105,4
Dang‘ara	466,2	5,0	102,5
Furqat	357,1	3,8	105,7
Yozyovon	125,9	1,4	115,2

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 27,7 %ni, shuningdek Qo‘qon shahri 11,1 %ni, Bag‘dod tumani esa 9,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o’sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Rishton (168,2%), Uchko‘prik tumani (130,9%) va Qo‘qon shahrida 109,4%ga ko‘p qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**

	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish <i>(mlrd. so‘m)</i>	Jamiga nisbatan ulushi %da	2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan %da
Viloyat jami:	4 287,5	100,0	102,4
Farg‘ona	357,5	8,3	109,0
Qo‘qon	477,0	11,1	109,4
Quvasoy	105,7	2,5	87,0
Marg‘ilon	280,3	6,5	82,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	75,6	1,8	60,7
Qo‘shtepa	98,8	2,3	66,9
Bag‘dod	391,9	9,1	108,6
Buvayda	66,2	1,5	52,3
Beshariq	91,7	2,1	93,6
Quva	248,9	5,8	89,9
Uchko‘prik	1 188,9	27,7	130,9
Rishton	89,5	2,1	168,2
So‘x	43,1	1,0	99,6
Toshloq	111,3	2,6	99,4
O‘zbekiston	103,0	2,4	88,5
Farg‘ona	167,3	3,9	107,3
Dang‘ara	116,1	2,7	86,4
Furqat	190,7	4,4	90,1
Yozyovon	84,0	2,0	100,4

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 13,4%ni, shuningdek Qo‘qon shahriga 19,6%ni, hamda Farg‘ona shahrida 16,6 %ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkichini Quva (2,4 m.), Buvayda (2,4 m.) tumanlari va Quvasoy shahri (179,0%)ni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati


	Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi %da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan %da
Viloyat jami:	4 989,5	100,0	104,4
Farg‘ona	828,1	16,6	100,0
Qo‘qon	978,9	19,6	99,6
Quvasoy	75,7	1,5	179,0
Marg‘ilon	553,8	11,1	121,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	171,8	3,4	158,6
Qo‘shtega	215,1	4,3	171,1
Bag‘dod	297,8	6,0	113,5
Buvayda	157,8	3,2	2,4 m.
Beshariq	51,2	1,0	183,8
Quva	104,4	2,1	2,4 m.
Uchko‘prik	667,4	13,4	108,0
Rishton	88,5	1,8	87,1
So‘x	36,3	0,7	114,7
Toshloq	128,8	2,6	103,1
O‘zbekiston	57,4	1,2	152,3
Farg‘ona	18,1	0,4	99,5
Dang‘ara	350,0	7,0	109,2
Furqat	166,4	3,3	132,0
Yozyovon	41,9	0,8	163,8

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 9 321,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 25,4 %ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiyligi hajmdagi ulushi, % da

2022-yil yanvar- dekabr



2023-yil yanvar- dekabr



**Hududlar bo‘yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar hajmi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2023- yil yanvar-dekabr)**

